

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING “QIZIL KITOBI”GA (2009 VA  
2019) KIRITILGAN LIMONIACEAE OILASI VAKILLARINING  
SOLISHTIRMA TAXLILI**

**G.Toshmatova – ADPI, Biologiya yo'nalishi talabasi**

**M.U.Tojiboyev – ADPI, Tabiiy fanlar kafedrasi dotsenti**

**[tmurodali74@gmail.com](mailto:tmurodali74@gmail.com), [toshmatovagulyora24@gmail.com](mailto:toshmatovagulyora24@gmail.com)**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobi"ning 4-nashri (2009) va 6-nashri (2019)ga kiritilgan Karmakdoshlar oilasining solishtirma tahlili keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Qizil Kitob, karmakdoshlar oilasi, kamyoblik darajasi, endemik turlar, sistematika.

**Аннотация:** В данной статье представлен сравнительный анализ рода Кармакдош, включенного в 4-е (2009 г.) и 6-е издания (2019 г.) «Красной книги» Республики Узбекистан.

**Ключевые слова:** Кызыл Китаб, семейство кармакад, степень редкости, эндемичные виды, систематика.

**Abstract:** This article presents a comparative analysis of the Karmakdosh family included in the 4th edition (2009) and 6th edition (2019) of the "Red Book" of the Republic of Uzbekistan.

**Key words:** Kyzil Kitab, family of karmakads, degree of rarity, endemic species, systematics.

Bizning yurtimiz turli-tuman o'simlik qoplami bilan ajralib turadi. O'simliklar florasi yer yuzini qoplagan bo'lib, dunyo bo'yicha ularni saqlab qolish hamda muxofaza qilish yuzasidan "Qizil kitob" ta'sis etilgan. O'zbekiston Respublikasi hududida 4500 ga yaqin oliy yovvoyi o'simlik va 2000 mingdan ortiq zamburug' turlari mavjud. Ular orasida jiddiy muhofazaga muhtoj ko'plab kamyob endemik va relikt turlar ham bor. Endemik o'simliklar-tarqalishi nisbatan kichik geografik hudud bilan cheklangan o'simliklar hisoblanadi. Bunday turlarning soni 300 dan ortiq bo'lib, ular O'zbekiston florasining 10-12 % ini tashkil qiladi. Ushbu 300 dan ziyod o'simliklar orasida yillar davomida areali kengayib, turlar soni ortganlari "Qizil kitob"dan chiqarilib kelinmoqda. Yoki aksincha, inson va boshqa tabiiy omillar natijasida qisqarilib borayotgan maydon

# “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 7. July 2024

o’simliklari o’z vaqtida muxofazaga olinmoqda. O’simlik o’z kamyoblik darajasini u yoki bu tomonga o‘zgartirib turishi mumkin. O’simlik dunyosini muxofaza qilishda keng omma ishtirok etgan taqdirda ijobiy natijalar beradi. Shundagina biz kelgusi avlodlar uchun nabodot olamini beba boyligini saqlab qolgan bo‘lamiz.

“Qizil Kitob”da har bir turning o’zbekcha, lotincha, ruscha nomlari va ularning qaysi oila hamda turkumga mansubligi ko’rsatilgan. Shuningdek, turlarning qisqacha tavsifi (hayotiy shakli, bo’yi, shox-shabbasi, bargi, guli, mevasi va fenologiyasi) tarqalishi va chizma xaritada uchraydigan joylari berib o’tilgan. Bu esa “Qizil kitob”ning mukammal ishlab chiqilganidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitob”ining 2009-yildagi nashri bo‘yicha Karmakdoshlar oilasi vakillari haqida ma’lumot.

(1-jadval)

Nº	Tur nomi	Kamyoblilik darjası	Hayot shakli	Tarqalish mintaqasi	Tarqalish soni	Madaniylash tirish
1.	Anna kirpio’ti Акантолимон Анны Acantholimon annae	2. Hisor tog’idagi kamyob, endem tur	Yarim buta	Surxondaryo viloyati Hisor tizmasi To’polon daryosi xavzasida tarqalgan.	Ko’p emas, to’p-to’p bo’lib uchraydi.	Ma’lumotlar yo’q
2.	Yekatrina kirpio’ti	2.	Yarim buta	Toshkent viloyati: Chotqol	Tuplari bir-biridan	Ma’lumotlar yo’q

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC  
INNOVATIVE RESEARCH”**

**Issue 7. July 2024**

	Акантолимон Екатерины <i>Acantholimon ecatherinae</i>	Chotqol tizmasidagi kamyob, endem tur		tizmasining Chimyon tog'ida tarqalgan.	ancha uzoq.	
3.	<b>Margarita kirpio'ti</b> <b>Акантолимон Маргариты</b> <i>Acantholimon margaritae</i>	2. Qurama tizmasidagi kamyob, endem tur	Buta	Toshkent viloyati qurama tizmasi Oxangaron daryosining chap tomonida tarqalgan.	Areal bo'ylab yakka- yakka holda tarqalgan.	Ma'lumotlar yo'q
4.	Nurota kirpio'ti  Акантолимон нуратинский <i>Acantholimon nuratavicum</i>	2. Nurota tizmasidagi kamyob, endem tur	Yarim buta	Navoiy viloyati Nurota tizmasida tarqalgan.	Kam. Kichik- kichik to'p hosil qiladi.	Ma'lumotlar yo'q
5.	Tuxumoyoq ildizbosh  Корнеглав яйценогий <i>Cephalorhizum oopodium</i>	1. Janubiy Pomir- olojdagi juda kamyob, endem tur	Ko'p yillik o't	Surxondaryo viloyati: Kelif- Sherobod tepaliklarida tarqalgan.	13 tup o'simlik bor.	Ma'lumotlar yo'q

2009-yil “Qizil Kitob”iga nazar tashlasak, 324 ta tur mavjud, oilaning 5 ta turi kiritilgan. U jami turlarning 1.6 foizini tashkil etadi. Ushbu 5 ta vakillar (kamyob turlar)- 4 ta; yo‘qolish arafasida turgan turlar(maqomi1)-1 ta, yo‘qolgan yoki yo‘qolgan bo‘lishi mumkin bo‘lgan turlar (maqomi 0), son jihatdan kamayib borayotgan turlar( maqomi3)

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC  
INNOVATIVE RESEARCH”**

**Issue 7. July 2024**

mavjud emas. Ushbu turlar haqida ko'plab ma'lumot olishimiz uchun rus, o'zbek, lotin tillarida nomlari berib otildi. Bu turlarning nomlari: Anna kirpio'ti, Yekatrina kirpio'ti, **Margarita kirpio'ti**, Nurota kirpio'ti, Tuxumoyoq ildizbosh kabi vakillardir.

Ushbu oila vakillarini taxlil qiladigan bo'lsak, 1 ta ko'p yillik o't, 3 ta yarim buta va 1 ta buta hayotiy shakllarni ko'rish mumkin. Ko'pchilik vakillari soni anniq emas. Chunki, ular soni juda kam maydonlarda tarqalgan. O'simliklarning madaniylashtirilganligi va muxofaza qilish choralari haqida ma'lumotlar keltirilmagan.

O'zbekiston Respublikasi “Qizil kitob”ining 2019-yildagi nashri bo'yicha Karmakdoshlar oilasi vakillari haqida ma'lumot.  
(2-jadval)

	<b>Tur nomi</b>	<b>Kamyoblik darajasi</b>	<b>Hayot shakli</b>	<b>Tarqalish mintaqasi</b>	<b>Tarqalish soni</b>	<b>Madaniy lashtirish</b>
.	Anna kirpio'ti Акантолимон Анны Acantholimon annae	2. Hisor tog'idiagi kamyob, endem tur	Yarim buta	Surxondaryo viloyati Hisor tizmasi To'palang daryosi xavzasida tarqalgan.	Kam sonli populatsiya, tabiatda kam uchraydi.	Ma'lumot yo'q
.	Yekatrina kirpio'ti Акантолимон Екатерины Acantholimon ecatherinae	2. Chotqol tizmasidagi kamyob, endem tur	Yarim buta	Toshkent viloyati: Chotqol tizmasining Chimyon tog'ida tarqalgan.	Aniqlanma gan	Ma'lumot yo'q

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC  
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 7. July 2024

.	<b>Margarita kirpio'ti Акантолимон Маргариты</b> <i>Acantholimon margaritae</i>	2. Qurama tizmasida gi kamyob, endem tur	Buta	Toshkent viloyati qurama tizmasi Oxangaron daryosining chap tomonida tarqalgan.	Areal bo'ylab juda kam tarqalgan.	O'z FA botanika bog'i
.	Nurota kirpio'ti Акантолимон нуратинский <i>Acantholimon nuratavicum</i>	2. Nurota tizmasida gi kamyob, endem tur	Yarim buta	Jizzax, Samarqand, Navoiy viloyatlari: Nurota tizmasida tarqalgan.	Kichik populatsiyalar 20-30dan 100-200 tupgacha bo'lishi mumkin.	Ma'lumot yo'q
.	Tuxumoyoq ildizbosh Корнеглав яйценогий <i>Cephalorhiza zum oopodium</i>	2. Janubiy Pomir- oloydagi kamyob, endem tur	Ko'p yillik o't	Surxondaryo viloyati: Kelif- Sherobod tepaliklarida tarqalgan.	2009-yilgi ma'lumotga ko'ra 13 tup o'simlik bor.	Ma'lumot yo'q
.	Deyarli sulisimon kirpio't Акантолимон почтиовсовый <i>Acantholimon subavenaceum</i>	2. Nurota tizmasidagi kamyob endemik tur.	Yarim buta	Samarqand, Navoiy, Sentobsoy, Ustuksay.	Yakka-yakka, ba'zan kichik to'p hosil qiladi.	Ma'lumot yo'q

# “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 7. July 2024

2019-yil nashriga to'xtaladigan bo'lsak, karmakdoshlar oilasining 6 ta vakili berilgan. Bu esa 314 ta turning 1.9%ini tashkil qiladi. Bu vakillarning ko'pchiligi Surxondaryo, Xorazm, Samarqandda tarqalgan. Bu vakillar: Anna kirpio'ti, Yekatrina kirpio'ti, **Margarita kirpio'ti**, Nurota kirpio'ti, Tuxumoyoq ildizbosh, Deyarli sulisimon kirpio't kabi vakillardir. Ushbu oila vakillarini taxlil qilar ekanmiz, 1 ta ko'p yillik o't, 4 ta yarim buta va 1 ta buta hayotiy shakllarni ko'rish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, 2009- yil nashrida 5 ta tur, 2019 yil nashrida 6 ta tur “Qizil Kitob”ga kiritilgan. Qo'shimcha tur sifatida deyarli sulisimon kirpio't kiritilgan. Undan tashqari 1 maqomga ega tuxumoyoq ildizbosh 2 darajaga tushgan. Bu esa uning holati yaxshilangandan darak beradi. Shunda, bu oila vakillarining maqomi barchasi 2 maqomni tashkil etadi. Margarita kirpio'ti esa O'Z FA botanika bog'ida ko'paytirilayotganligi haqida ham ma'lumot berilgan. Turlarining muhofazaga kiritilishiga sabab tog' etaklarining qishloq xo'jaligi uchun o'zlashtirilishi va chorva mollarining ko'plab boqilishi va bundan tashqari, o'simliklarning kichik maydonlarda o'sish sharoitiga moslashmaganligi sabab bo'lganligi aniqlandi. Bu o'simliklar maxsus bir ximoyalanish chora- tadbirlariga ega emas. Shuning uchun biz insonlar noyob va kamayib borayotgan o'simlik turlarini himoya qilishimiz kerak.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi “Qizil Kitobi” 1-jild. – Toshkent: Chinor ENK, 2009. - B.140-145.
2. O'zbekiston Respublikasi “Qizil Kitobi” 1-jild. - Toshkent: Chinor ENK, 2016. - B.120- 133.
3. O'zbekiston Respublikasi “Qizil Kitobi” 1-jild. – Toshkent: Chinor ENK, 2019. - B. 123-128.
4. Toshboyeva M.Q, Saloyeva A.S, Tojiboyev M.U. O'zbekiston Respublikasining “Qizil kitobi”ga (2009 va 2019) kiritilgan Brassicaceae oilasi vakillarining solishtirma taxlili // Новости образования: исследование в XXI веке. Vol.1. No.6. 2023.
5. Tojiboyev M.U, Saloyeva A.S, Toshboyeva M.Q, Isaqjonova O.A. The place and medicinal properties of certain species of the genus of Achillea in Uzbekistan plant coverage //European Scholar Journal. Vol.4 No.1. 2023.

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC  
INNOVATIVE RESEARCH”**

**Issue 7. July 2024**

6. Toshmatova G.M, Vahobova D.A. O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan Polygonaceae oilasining solishtirma tahlili (2009-2019-yil nashrlari misolida)// JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN" JURNALI VOLUME 1, ISSUE 1, 2023.
7. Usmonov D.D, Toshmatova G.M, Vahobova D.A. O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobi"ga kiritilgan Sutlamadoshlar oilasining solishtirma taxlili (2009 va 2019-yillar nashrlari misolida)// Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiya.



**Research Science and  
Innovation House**